

## O'tganlarni etmoq yod - xalqimizga xos odat

Davlatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridanoq asrlar davomida ajdodlarimiz yaratgan ulkan, beba ho ma'naviy va madaniy merosni tiklashga katta ahamiyat berildi. O'zbekiston xalqi o'z tarixini tiklash, haqsiz unutilgan nomlarni, jahon rivojlanishida muhim rol o'ynagan tarixiy shaxslarni yorug'likka chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultetining yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova boshchiligidagi 1- kurs 2 - guruh talabalari Shahidlar maydoniga sayohat uyuştirishdi. Sayohat mobaynida shahidlar maydoniga tegishli tarixiy ma'lumotlarni muzey xodimlari tomonidan talabalarga ma'lumotlar berildi. Shuningdek, sayohat davomida talabalar qatog'on yillarda shahid ketgan buyuk allomalarimiz tarixiga oid bir qator ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**